



Sherzodxon Mahmudov

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi
Tarix instituti “O‘rta asrlar tarixi bo‘limi”
boshlig‘i, tarix fanlari doktori.

E-mail: mahmudovsh@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17697991>

QO‘QON XONLIGI DIPLOMATIK ALOQALARIDA ELCHINING O‘RNI: IJTIMOIIY – SIYOSIIY TAHLIL.

Annotatsiya. Maqolada Qo‘qon xonligi diplomatik aloqalarida elchilik vazifasiga loyiq ko‘rilgan shaxslar, ularning xonlik ijtimoiy, siyosiy hayotidagi o‘rni tahlil qilingan. Xususan, diniy ulamolar, tasavvuf yetakchilari, davlat amaldorlari, yirik savdogarlardan elchi etib tayinlanishining sabablari, bu toifadagi elchilarning diplomatik faoliyatlari, mahoratlari, yuklatilgan vazifani bajarishdagi mas’uliyati manbalar va diplomatik xujjatlar asosida tadqiq etilgan. Shu bilan birga ushbu masala Buxoro va Xorazm xonliklaridagi holat bilan o‘zaro qiyosiy tahlilga ham tortilgan. Manbalar va diplomatik xujjatlarda Qo‘qon xonligi tashqi aloqalarida ko‘proq diniy ulamolar hamda davlat amaldorlariga elchilik vazifasi yuklatilganligi, ular bu vazifani bajarishda zimmalariga yuklatilgan vazifaga mas’uliyat bilan yondashgani, elchilar tomonidan xonlikning siyosiy manfaati doirasida muhim qarorlarni qabul qila olganligi ko‘rsatib berildi. Shuningdek, elchilikka tanlanganlarning shaxsiyati, xonlikdagi ijtimoiy mavqeyi masalalariga ham e’tibor qaratildi.

Kalit soʻzlar: Qoʻqon xonligi, diplomatik aloqalar, elchi, diniy ulamolar, davlat amaldori.

Kirish. Diplomatik missiyalarning samarali natijalarga erishishida elchining aql-zakovati, tafakkuri, axloqi, muomala madaniyati hamda nasabi va ijtimoiy mavqei muhim oʻrin tutadi. Har bir davlat diplomatik munosabatlarni oʻrnatishda iqtidorli, salohiyatli davlat arboblari, savdogarlar yoki diniy ulamolardan elchi sifatida foydalangan.

Qoʻqon hukmdori Erdonabiy (1753 – 1763) Buxoro hokimiyatiga mangʻitlar sulolasi kelgandan soʻng, ular bilan elchilik aloqalarini oʻrnatar ekan, dastlab oʻz xonadoniga mansub shaxslarni elchilikka tanlagan edi. U oʻz singlisining oʻgʻli boʻlgan Xonxoʻja Yusufalixoʻja oʻgʻlini Buxoroga elchi qilib yuboradi [13:124]. Mangʻitlar yetakchisi Muhammad Rahimbiy ham bu yoʻlni tutishga harakat qilganligi manbalardagi maʼlumotlarda qayd etiladi. Unga koʻra, Muhammad Rahimbiy ham Qoʻqonga oʻz ukasi Yovqochtibiyni Qoʻqon elchisining qaytishida unga qoʻshib birga elchi qilib yuboradi. Bu oʻrinda har ikki sulola yetakchilari dastlab oʻziga yaqin boʻlgan kishilarni elchilikka tanlagani ham bejiz emas. Ularning bunday yoʻl tutishi, bir tomondan, yaqin hamkorlikni anglatishi bilan bir qatorda, oʻsha davrda Oʻratepa va Hisor bekliklarini boʻysundirishga qaratilgan harbiy kelishuvlari bilan ham bogʻliq edi.

Koʻp hollarda elchilik yuborilayotgan davlatning salohiyati, davlat hukmdorlarining zehniyati, dunyoviy va diniy qarashlari, elchilikdan kutilayotgan natijalar mohiyatidan kelib chiqqan holda elchilar tayinlangan. Buni Turkiston xonliklarining Usmoniylar bilan diplomatik aloqalari misolida kuzatish mumkin. Bu oʻrinda qayd etib oʻtish lozimki, umumiy tarzda Turkiston xonliklarining Usmoniylar davlati bilan olib borgan diplomatik aloqalari yoki Buxoro, Xorazm va Qoʻqon xonliklarining har biri bu davlat bilan alohida elchilik munosabatlarini olib borganligiga doir tadqiqotlar koʻlami keng boʻlishiga qaramay, ularda elchilar shaxsi yoki mavqeyi masalasiga eʼtibor qaratilmagan [3,4,5,14,15].

Asosiy qism. Qo‘qon xonligini Usmoniylar davlati bilan nafaqat uning xalifalik markazi va diniy-ma’naviy rahnamolik sifatidagi ustivor mavqeyi, balki Rossiya imperiyasi tajovuzidan himoyalaniş masalasi ham yaqinlashtirdi. Yuzaga kelgan ushbu siyosiy vaziyat Turkiston xonliklarini Usmoniylar bilan diplomatik aloqalarini yanada jadallashtirish, xalifalik markazi deb qaralgan davlat bilan yanada yaqinlashish va ikki o‘rtadagi munosabatlarni samarali olib borishga layoqatli munosib elchilarni tanlash masalasini kun tartibiga qo‘ydi. Xonliklar hukmdorlarining tanlovi bu masalada, asosan, diniy ulamolarga tushdi. Buni 16 – 19-yuzyilliklarda yozilgan tarixiy asarlar, rasmiy yozishmalar va arxiv hujjatlari yaqqol tasdiqlaydi. Ularning ko‘rsatishicha, Qo‘qon xonligining xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlarida elchilik vazifasini bajarganlar ko‘proq diniy ulamolardan tanlangan bo‘lib, buning bir qancha omillari mavjud edi. Eng asosiy omil – elchining dunyoqarashi, aql-zakovati, jamiyat ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotida tutgan o‘rnidan kelib chiqar edi. Nizomulmulkning ifodasi bilan aytganda, “Podshohning elchi yuborishdan maqsadi xat yoki maktub yuborish emas, balki uning safardan ko‘zda tutgan qator maqsadlari va sir-asrorlari mavjud” bo‘lgani kabi, bu vazifani juda maromiga yetkazib ado etgan diniy ulamolarning elchilikka asosiy nomzod sifatida tanlanishiga sabab bo‘lgan [10:100]. Qolaversa, diniy ulamolar, diniy qatlam vakillari davlat boshqaruv tizimida muayyan mansab va unvonlarga ega bo‘lganligi ularni davlat siyosatiga yaqinlashtirgan, oqibatda ularning kuchli siyosiy tafakkuri hamda axloqiy ko‘rsatkichlari, xususan, muomala madaniyatiga egaligi elchi sifatida tanlanishiga sabab bo‘lgan.

Elchilikka tanlangan din ulamolari ko‘p hollarda davlat boshqaruvida *shayxulislom*, *xojakalon* kabi mansablarda yoki *naqib* kabi unvon sohibi bo‘lganlar. Ba’zilar esa tasavvuf liderlaridan yoki mashhur naqshbandiya tariqati vakillari Xoja Ubaydulloh Ahror yoki Jo‘ybor xo‘jalarining avlodlaridan bo‘lgan diniy ulamolar edi.

Boshqa mamlakatlarga yuboriladigan elchilarning nomzodi ham *shig‘ovul* tomonidan hukmdorga tavsiya etilgan. Bu haqda 1863 – 1865-

yillarda Qo‘qon xonligida shig‘ovul lavozimida faoliyat yuritgan Muhammad Yunus Toyyib o‘zining “Tarixi Aliquli amirlashkar” asarida “Odamzod hamma barobar emas, balki zukkoligi, aqlu va hushu fahmi o‘tkirligi bilan ajralib turadi” [8:64 b, 21:61], deb tasavvufning Naqshbandiya-mujaddidiya tariqati peshvosi Miyon Xalil Sohibzoda hazratning elchilik faoliyati to‘g‘risida so‘z yuritadi [8:64 b, 21:61]. Miyon Xalil Sohibzoda Muhammad Alixon (1822 – 1841) tomonidan 1841-yilda Sankt-Peterburgga elchi sifatida tanlangan bo‘lib, uning diplomatik faoliyati ijobiy natijalar bilan yakunlangan edi.

Albatta, diniy ulamolar madrasalarda tahsil olib, mukammal bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lganlar. Muhammad Yunusjonning o‘zi Qo‘qon xonligi markaziy boshqaruv tizimida *shig‘ovul* lavozimida ishlaganligi bois bosh vazir Aliquli amirlashkarga Rossiya imperiyasi tajovuzi tufayli murakkab siyosiy vaziyat yuzaga kelgan vaqtda musulmon mamlakatlaridan yordam so‘rab yuborish uchun aynan mashhur diniy ulamolar Ali Akbar hoji naqib, Abulqosimxon eshon, Eshon qozi ibn Nizomiddin qozi kabi shaxslarni elchilikka tavsiya qilgan [21:61]. Ushbu ma’lumot Turkistonda vujudga kelgan murakkab siyosiy vaziyatni musulmon davlatlari bilan diplomatik aloqalarni mustahkamlash orqali hamda ushbu aloqalarni amalga oshirishdagi asosiy vositachi – elchilarni tayinlashda diniy ulamolarga ko‘proq e’tibor berilganligini ko‘rsatadi.

Elchilarni diniy ulamolardan tayinlanishi boshqa xonliklar tajribasida ham qo‘llanilgan. Jumladan, “Usmonli arxivi” fondidagi hujjatlardan ma’lum bo‘lishicha, Buxoroda ashtarxoniylar xonadoni vakili Ubaydullaxon (1702 – 1717) tomonidan 1707-yilda Xoja Muhammad Amin elchi qilib Istanbulga yuborilgan. U ashtarxoniylarning davlat boshqaruvida eng muhim lavozimlarni egallagan. “Dastur ul-mulk” asarida Xoja Muhammad Amin sayyidlardan ekanligi ham ko‘rsatiladi [12:196]. Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma” asarida Xoja Muhammad Aminni *muhtasib* lavozimida faoliyat yuritib, *inoq* unvoniga ega bo‘lganligi qayd etiladi [7:13]. Bundan tashqari, bu shaxs Abulfayzxon hukmdorligida muhrdor lavozimida ham faoliyat yuritgan

[7:13]. Odatda, muhrdorlik davlat boshqaruvida hukmdorga eng yaqin shaxs zimmasiga yuklatilgan. Keltirilgan ushbu ma'lumot, Xoja Muhammad Aminning oliy hukmdorga yaqin bo'lganligini ko'rsatadi.

Subhonqulixon (1681 – 1702) bilan Balx hokimi o'rtasida yuzaga kelgan ziddiyatli holatni ham Xoja Muhammad Amin elchi sifatida iliqlashtirishga erishgan edi. Uning o'ta yuqori muomala madaniyati, insonning ko'nglini xushnud etuvchi latif so'zlari bilan dushmanning qalbidagi g'azabni yo'qota olish qobiliyati Xoja Samandar Termiziy tomonidan bejiz ta'riflanmagan [12:196]. Shu bois ham Ubaydullaxon uni xalifalik markazi deb qaralgan Usmoniylar davlatiga elchi sifatida tanlagan edi.

Xorazm hukmdori Elbarsxonga (1728 – 1740) qadar Urganchdan Usmoniylar davlatiga elchilar yuborilganligi to'g'risida ma'lumotlar yo'q. 1735 yilda Xorazm xonligidan Istanbulga Elbarsxonning elchi yuborishi ikki davlat o'rtasidagi dastlabki diplomatik munosabatlarning debochasi sifatida baholanishi mumkin. Ushbu elchilikka ham boshqa xonliklar hukmdorlari kabi Xorazm hukmdori diniy ulamolardan bo'lgan Mulla Oxund Avazni tanlagan edi [20:18].

19-yuzyillika kelib Qo'qon xonligi bilan Usmoniylar davlati o'rtasidagi diplomatik aloqalar ancha faollashgan. Usmonli arxivi hujjatlari hamda tarixiy asarlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Qo'qondan Istanbulga 12 marta elchilik yuborilgan bo'lib, shundan 6 tasi maxsus diplomatik missiya tarzida tashkil etilgan edi. Qolganlari esa, bu mamlakat hududi orqali haj ziyoratiga borishni ixtiyor etgan shaxslar bo'lib, ular zimmasiga rasmiy elchilar zimmasiga yuklanadigan muayyan topshiriqlar berilgan edi. Usmonli arxividagi hujjatlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, Istanbulga yuborilgan elchilarning barchasining shaxslari ma'lum bo'lib, ularning 6 tasi diniy ulamolar va tasavvuf tariqati vakillaridan edi [17:61 – 77].

Qo'qondan Istanbulga yuborilgan diplomatik missiyalardan Xoja Mir Qurbon, Muhammad Zohidxo'ja va Sayyid Yoqubxo'ja eshon boshchiligidagi elchiliklar eng nufuzlisi hisoblanadi [19:134]. Bu shaxslar

Umarxon (1810 – 1822), Muhammad Alixon (1822 – 1841), Sulton Sayyidxon (1863 – 1865) hukmronligi davrida xonlikning eng yirik diniy ulamolaridan hisoblangan edilar.

Istanbulga Qo‘qon xonligi tomonidan dastlabki elchilik yuborilishi Umarxon davrida amalga oshirilgan va ikki davlat rasmiy diplomatik munosabatlarga kirishgan [18:287 – 290]. Dastlabki elchilikka hamadonlik *sayyidlardan* bo‘lgan Xoja Mir Qurbon tanlangan edi [17:61 – 77].

“Usmonli arxivi” hujjatlariga ko‘ra, 1837 yilda Qo‘qondan Istanbulga yuborilgan Sayyid Muhammad Zohid xoja *xoja-kalon* unvoniga ega bo‘lgan [22]. Shuningdek, u Qo‘qon xoni Muhammad Alixon tomonidan usmonli sultoni Mahmud II ga (1808 – 1839) yuborilgan maktubning usmonlichaga tarjimasida Jo‘ybor shayxlari sulolasidan bo‘lganligi qayd etiladi [23].

“Usmonli arxivi” jamg‘armasida saqlanayotgan ikki maktub Aliquli amirlashkar elchisi Sayyid Yoqubxon to‘ra shaxsiyatiga oid ancha to‘liq va aniq ma‘lumotlarga ega. Maktubda ko‘rsatilishicha, Sayyid Yoqubxon to‘ra Qo‘qon xonligida *qozi al-quzzot*¹ lavozimida faoliyat ko‘rsatishi bilan bir qatorda, *naqib*² unvoniga ham ega bo‘lgan.

Elchi Sayyid Yoqubxon to‘rani turk olimi M.Saray Turkiston yetishtirgan eng kuchli diplomatlardan biri edi, deb ta’riflaydi [20:69]. Shuningdek, turk olimi tomonidan elchi Sayyid Yoqubxon to‘ra Usmonli davlatining Turkiston musulmonlari uchun ijobiy ta’sir etishiga qaratilgan yangi tashabbuslar bilan chiqqanligi qayd etiladi [20:70].

Qo‘qondan yuborilgan ulamolarning xonlik diniy boshqaruvidagi diniy rutbasiga alohida e’tibor qaratilgan. Shuni alohida qayd etish kerakki, o‘zbek davlatidan elchi sifatida tanlangan ulamolar “*ahli bayt*” vakillaridan edi. Ularning payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v xonadoniga mansubligi diplomatik maktublarda alohida e’tirof etilishi, Turkistondan xalifa huzuriga elchilikka nomzodlarni tanlashda ularning sayyidligiga ham alohida e’tibor qaratilishini anglatadi. Bu bir jihatdan musulmon

¹ Qozi al-quzzot – Qo‘qon xonligi markaziy boshqaruv apparatida qozilarning rahbari – oliy sudya vazifasiga teng bo‘lgan.

² Naqib – diniy unvonlardan sanalib, Qo‘qon xonligida bu unvon Payg‘ambarimiz Muhammad sav avlodlariga berilgan.

dunyosida xalifalik maqomiga ega Usmonli sultonlariga yaqinlashish uchun qo'llanilgan usul, deb baholash mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, 19-yuzyillikning birinchi yarmida Turkiston hududiga Rossiya bosqini tahdidi amaliy jihatdan o'sib bordi. Bundan xavotirlangan Turkiston xonliklari hukmdorlari ushbu masala borasida birlashish emas, balki tashqaridan o'ziga siyosiy hamkor izlash yo'lidan bordilar. Hatto Qo'qon hukmdorlari birlashish g'oyasini o'rta qo'yib, bunda Usmoniylar davlatidan yordam kutdi. Albatta, bu mushkul masalalarni diplomatik yo'li bilan, uning turli usullaridan foydalangan holda, nozik tarzda hal qilishga urindilar.

Usmoniylar davlatiga yuborilgan elchiliklarni o'rganar ekanmiz, Buxorodan ham, Xorazmdan ham, Qo'qondan ham ko'p hollarda diniy ulamolar, tariqat vakillari, muayyan diniy bilimga ega bo'lgan shaxslar elchilikka tanlanganligining guvohi bo'lamiz. Fikrimizcha, bu holatning ikki jihati mavjud bo'lib, ularni quyidagicha izohlash mumkin. Birinchidan, yuqorida ta'kidlanganidek, Turkiston hukmdorlari davlat boshqaruvida asrlar davomida shakllangan an'analardan voz kechmagan. Zero, bu an'analarga muvofiq, muayyan davlatga elchi tayinlanganida uning bilimi, diniy ilmlardan boxabarligi, so'zamolligi va boshqa xislatlariga e'tibor qaratilgan. Ikkinchidan, Turkiston xonliklarining hukmdorlari bu davrda xalifalik rahnamosi va markazi hisoblangan Usmoniylar davlatiga aynan diniy olimlarni elchiliklarga bosh qilib jo'natish orqali o'z istak va xohishlarining tezroq eshutilishi, o'rtadagi munosabatlarning tushunarli va shaffof bo'lishiga intilganlar.

19-yuzyillikning boshlariga kelib esa Qo'qon – Buxoro munosabatlarida ham diniy ulamolar elchilikka tanlanganini ko'rsatadi. Umarxon hukmronligida To'raxoja xojakalon Buxoroga elchi qilib yuborilgan edi [9:27]. Muhammad Alixon ham bu an'anani davom ettirgan. U Buxoroga ham nufuzli ulamolarni elchi qilib yuborganligi tarixiy asarlardan ma'lum. 1824-yilda Buxoroga dastlab Azimboy dodxoh elchi qilib yuborgan bo'lsa, keyingi elchilikka Sultonxon to'ra Ado tanlangan edi.

Umarxon davrida Xorazm bilan oʻrnatilgan dastlabki elchilik aloqalarida ham diniy ulamolardan elchi tanlanganligini koʻrish mumkin. 1815-yilda Sayyid Muhammad Xoja Xorazmga elchi boʻlib borgan edi.

Diplomatik munosabatlarda diniy ulamolar doim ham elchi sifatida tayinlanmagan. Manbalar maʼlumotlaridan elchilikka koʻp hollarda saroy amaldorlari tayinlanganini kuzatish mumkin. Bunga Umarxonning Xorazmga yuborgan ikkinchi elchiligi misol boʻladi. U tomonidan 1821-yilda Abduxoliq qorovulbegi ismli amaldor Xorazmga elchi qilib yuborilgan edi [2:185]. Bunday tanlov ikki sulola yetakchilari tomonidan harbiy ittifoqchilik kelishuvi bilan bogʻliqligini koʻrsatib oʻtish mumkin. Bu oʻrinda elchilikka tanlash diplomatik aloqalarning yoʻnalishiga qarab belgilanganligi bilan ifodalanadi.

Xudoyorxon davrida Xorazm bilan diplomatik aloqalar juda ham faollashgan vaqtda deyarli barcha elchilar davlat amaldorlaridan tanlanganligini tarixiy maʼlumotlar tasdiqlaydi. Xususan, Xudoyorxon 1848-yilda Xolmurodbiy, Bahodir dodxohni, 1854-yilda Muhammad Karim bahodirboshini elchi qilib yuborgan edi. Bu vaqtda Rossiya imperiyasining xonlik shimoliy hududlarini bosib olish jarayonida ikki xonlik oʻrtasida munosabatlar jadallashgan edi. Shu nuqtai nazardan masalaga yondoshgan hukmdorlar elchilarni, asosan, harbiylar orasidan tanlashga harakat qilganliklari koʻrinadi.

Ayrim hollarda elchilikka karvonboshilar ham tanlangan holatlar yuz bergan. Bunga 1853-yilda xonlikdan Rossiyaga yuborilgan elchi Yoʻldoshboy karvonboshini misol keltirish mumkin [1:121 a,b].

Qoʻqondan Pekinga yuborilgan elchilarning aksariyati esa davlat amaldorlari boʻlgan. Tojir Xoʻjandiyning “Gʻaroyibi sipoh” asarida qayd etilishicha, 1831-yilda Pekinga yuborilgan Qoʻqon elchisi Aʼlam pochcha edi [11]. Aʼlam pochcha diniy ulamolardan boʻlganligiga doir maʼlumot mavjud emas. Ammo uning toshkentlik savdogar boʻlganligi maʼlum [6:136]. Bu oʻrinda Aʼlam pochcha bejiz elchi sifatida tanlanmaganligini koʻrsatib oʻtish lozim. Chunki Qoʻqonning Chin imperiyasi bilan diplomatik aloqalarining asosiy yoʻnalishi Sharqiy Turkiston va u yerdagi

savdoni nazorat qilish bilan bog‘liq edi. Shu holatdan kelib chiqqan holda, diplomatik aloqalarning maqsadiga qarab elchilar tanlangan.

Rossiyaga elchi yuborishda ham Qo‘qon hukmdorlari vaziyatdan kelib chiqib harakat qilganliklarini kuzatishimiz mumkin. Bu olis yurtga yuborilgan elchilarning aksariyat qismini amaldorlar tashkil etgan. Jumladan, Rossiya imperiyasiga yuborilgan dastlabki elchilar Shokirbek otaliq va Rahmatilla qushbegi ismli davlat mulozimlari bo‘lgan edi. Qo‘qon xonligidan Rossiyaga yuborilgan keyingi diplomatik missiyalarga ham davlat amaldorlari elchilikka tanlanganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, 1859-yilda Mallaxon Raimbek dodxoh ismli mulozimni elchi qilib yuborgan edi [24]. 1874-yilda esa Xudoyorxon Mirza Hakim parvonachi boshchiligidagi elchilikni Rossiyaga yuboradi. Rossiya imperiyasiga 1850-yillardan keyin faqat davlat mulozimlarining elchi qilib tanlanishi siyosiy vaziyat bilan bog‘liq bo‘lgan.

1829-yilda Sayyid Mirqurbon va Tursunxo‘ja sudur, 1841-yilda esa Miyon Xalil Cohibzoda elchilikka tanlangan ulamolar vakillari edi. Miyon Xalil Sohobzodaning elchilik faoliyati juda mashhur bo‘lganligi uchun Xudoyorxon ham 1853-yilda uni yana qayta Sankt-Peterburgga elchi qilib yubormoqchi bo‘lgan. Imperiyaning Sibir hududlarida mavqei nihoyatda kuchli bo‘lgan va ular orasida ko‘p sonli muridlarga ega Miyon Xalil Cohibzodaga elchilik vazifasi taklif qilinganda, u xizmat haqqi uchun 3000 tillo so‘ragan. Bu esa kengashda muhokama qilinar ekan, hukumat a‘zolari xazinadan bunday katta mablag‘ berishni ma’qullamaganlar [1:121 a,b]. Qo‘qon xonligining Oliy kengashida muhokama natijasida Yo‘ldoshboy karvonboshi elchilikka tanlangan. U elchilik vazifasini bajarish xizmati uchun 500 tillaga rozi bo‘lgan edi [1:121 a]. Bu o‘rinda davlat ahamiyati darajasidagi masalalarni muhokama qilish, manfaatlar ustunligini inobatga olishda elchining roli katta, albatta. Biroq, mamlakat siyosiy hayotida muhim bo‘lgan jarayonlar uchun mablag‘ masalasida o‘rinli qaror qabul qilinmagan. Chunki Rossiya bilan savdo manfaatlari ustun bo‘lgan Yo‘ldoshboy karvonboshini elchi sifatida tanlanishi to‘g‘ri bo‘lmagan.

Hindistonga yuborilgan elchilar ham, asosan, davlat amaldorlaridan tanlangan. 1857-yilda Mallaxon Xudoynazar qorovulbegini, 1864-yilda Sulton Sayidxon tomonidan Hojibek eshikog'asi, Nazar dodxoh, Toshxo'ja sudur kabi davlat amaldorlari elchi etib Hindistonga yuborilgan.

Xulosa. Qo'qon xonligida elchilikka tanlangan nomzodlarni o'rganish natijasida shuni alohida qayd etish mumkinki, Usmoniylar davlatiga elchilar, asosan, diniy ulamolardan belgilangan. Usmoniylar davlatiga yuborilgan elchiliklardan farqli ravishda Qo'qon xonligidan Chin, Rossiya, Hindistonga esa, asosan, davlat amaldorlari yoki yirik savdogarlar elchiliklarga bosh qilib jo'natilganligini tarixiy dalillar ko'rsatmoqda. Bu esa xonlikda elchilar tayinlash borasida o'ziga xos yondashuvlar shakllangani, har bir davlatga diplomatik munosabatlarning yo'nalishlari hamda belgilangan maqsadlaridan kelib chiqqan holda elchilar belgilanganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga Qo'qon hukmdorlarining diplomatik aloqalarda mahorati va tafakkuri oshib borganligini ko'rsatadi. Ba'zi o'rinlarda, xususan, hukmdorlarning yoshligi, tajribasizligi bilan elchi tanlanishida yanglish qarorlar ham qabul qilingani, xonlik uchun natijasiz ham bo'lgan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Абу Убайдуллоҳ Тошкандий. Хулосат ул-аҳвол. ЎзФАШИ, қўлёзма №2084.
2. Аллаева Н. Хива хонлигининг дипломатияси ва савдо алоқалари (XVI – XIX асрлар). –Тошкент: Академнашр, 2019. 496 б.
3. Бабаджанов Б. Кокандское ханства: власт, политика, религия. Ташкент-Токио: Янги нашр, 2010. 744 с.
4. Болтабоев Н. Амир Умархоннинг мактуби // Ўзбекистон адабиёти ва санъати 1997 йил 24 октябр. № 43.
5. Василев А.Д. Знамя и Меч от падишаха. Политические и культурные контакты ханств Центральной Азии и Османской империи (середина XVI – начало XX вв). – Москва, 2014. 356 с.
6. Кузнецов В. Экономическая политика цинского правительства в Синцзуане в первой половине XIX в. Москва: Наука, 1973.
7. Мир Мухаммед Амин-и Бухари. Убайдулла-наме. Ташкент. 1957.
8. Мухаммад Юнусжон шиғовул. Тарихи Алиқули амирлашкар. ЎзФАШИ, қўлёзма №12136.
9. Мухтаров А. Очерк истории Ура-Тюбинского владения в XIX в. – Душанбе, 1964.
10. Низомулмулк. Сиёсатнома ёки сияр ул-мулк (Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифлари: Ш.Воҳидов, А.Эркинов). Тошкент: Адолат, 1997.
11. Тожир Хўжандий. Ғаройиби сипоҳ. Эрон Миллий кутубхонаси. بنياد کتابخانه ملی ایران 2949614/ موسی نامه وتاریخ امرای خوقند
12. Хожа Самандар Термизий. Дастур ул-мулк. Тошкент. 2001.
13. Худоёрхонзода. Анжум ат-таворих (Тарих юлдузлари). Тошкент. 2014.
14. Erdogan A. The Khoqandi Envoys in Ottoman Istanbul // Central Asian Journal 52/1. 2008. P. 1-11.

15. Komatsu H. Khoqand and Istanbul: An Ottoman document relating to the earliest contacts between the khan and sultan // *Asiatische Studien Etudes Asiatiques* LX.4.2006. P. 963-986.

16. Levi S. The Rise and Fall of Khoqand 1709-1876. Central Asia in the global age. Published by the University of Pittsburgh Press, 2017. 258 p.

17. Mahmudov Sh. 1864 Yılında Hokand'dan İstanbul'a Gönderilen Diplomatik Misyon // *İnsan ve Toplum Bilimleri Araştırmaları Dergisi*. (Türkiye) Volume 9, Issue 4. 2020. P. 61-77.

18. Mahmudov Sh. The Interrelations of Kokand khanate with Ottoman Empire (1st half of the 19th of century) // International scientific conference about "XVIth Turkish congress of history". Ankara, 2015. P. 287 – 290.

19. Mahmudov Sh. Türkistan'ın Osmanlı Devleti ile Diplomatik İlişkilerinde Elçi Olarak Seçilenler / "Cumhuriyet'in 100. Yılında Türk Dışişleri: Asırların Diplomasi Birikimi" uluslararası sempozyumu bildiriler kitabı, Ankara: 2025. S. 127 – 139.

20. Saray M. Rus işgali devrında Osmanlı devleti ile Turkistan hanlıkları arasındaki siyasi münasabetsler (1775 – 1875). – Ankara: Turk tarih kurumu, 2017.

21. The Life of Alimqul. A Native Chronicle of Nineteenth Century Central Asia. Edited and translated by Timur Beisembiev. – London, 2003.

22. TCCDABOA, Hatt-ı Humayun Daftarı, nr., 657/32100 E.

23. TCCDABOA, Hatt-ı Humayun Daftarı, nr., 657/32100 C.

24. РГВИА. Ф.483.оп.1. уд.хр. 50. С.2.

THE ROLE OF THE ENVOY IN THE DIPLOMATIC RELATIONS OF THE KHOQAND KHANATE: SOCIO- POLITICAL ANALYSIS.

Abstract. The article examines individuals who were deemed suitable to serve as envoys in the diplomatic relations of the Khoqand Khanate and analyzes their role in the socio-political life of the khanate. In particular, it explores the reasons for appointing religious scholars, leaders of Sufi

orders, state officials, and prominent merchants as ambassadors, as well as their diplomatic activities, professional competence, and sense of responsibility in fulfilling assigned duties. The study is based on historical sources and diplomatic documents. Additionally, the issue is subjected to a comparative analysis with the corresponding practices of the Bukhara and Khorezm khanates. The sources and diplomatic materials demonstrate that diplomatic missions in the Khoqand Khanate were most commonly entrusted to religious scholars and state officials, who approached their tasks with a high degree of responsibility and were capable of making significant decisions in the political interests of the khanate. The article also draws attention to the personal qualities and social status of those selected for diplomatic service.

Keywords: Khoqand Khanate, diplomatic relations, envoy, religious leaders, state official.

РОЛЬ ПОСЛА В ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЯХ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА: СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ.

Аннотация. В статье анализируются личности послов, назначенные возглавлять дипломатические миссии Кокандского ханства, а также их роль в социально-политической жизни ханства. В частности, исследуются поводы назначения религиозных учёных, лидеров суфийских тарикатов, государственных должностных лиц и крупных купцов на должность послов, их дипломатическая деятельность, профессиональные навыки и ответственность при выполнении возложенных на них обязанностей. Изучение основано на исторических источниках и дипломатических документах. Помимо этого, данный вопрос подвергается сравнительному анализу с аналогичной практикой в Бухарском и Хорезмском ханствах. Источники и дипломатические материалы показывают, что во внешних отношениях Кокандского ханства возглавляют дипломатические миссии, как правило, поручались религиозным

учёным и государственным чиновникам, которые проявляли высокую ответственность и способны были принимать важные решения в интересах ханства. Особое внимание уделено также личности выбранных послов и их социальному и политическому статусу внутри ханства.

Ключевые слова: Кокандское ханство, дипломатические отношения, посол, религиозные учёные, государственный чиновник.